Аннотация: В мире существует множество определений понятий «зелёная экономика» и «зелёный рост». В большинстве случаев эти определения схожи с трактовками, предложенными ЮНЕП, и включают такие понятия, как «справедливость», «дефицит природных ресурсов», «экологические риски» и «благополучие человека». Оба термина часто используются как синонимы, однако «зелёный рост» преимущественно связан с экономическим развитием, тогда как «зелёная экономика» – с социальными вопросами. Современной тенденцией на рынке труда является разработка политики, направленной на обеспечение занятости населения на основе принципов зелёной экономики. Особенность такой политики заключается в создании «зелёных рабочих мест», что способствует снижению негативного воздействия на окружающую среду, улучшению экологической ситуации и минимизации влияния экологических условий на здоровье человека.

Ключевые слова: зелёная экономика, политика занятости, социальный капитал, экологическая ситуация, «коричневая» экономика, экологические риски, благополучие человека.

KIRISH

Ayni paytda atrof-muhitni yaxshilash, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, energiya va resurslarni tejash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, organik dehqonchilikni rivojlantirish, yashil standartlarni joriy etish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini kengaytirish omiliga aylanmoqda hamda yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Muhim masala – bu energetika sektori va ekologik xavfsizlik talablari o‘rtasidagi bog‘liqlikdir.

Energetika sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog‘i hisoblanadi. Asosiy energiya eksportchilari – Xitoy, AQSh, Hindiston va Rossiyadir. Biroq aynan energiya resurslarini tejash “yashil”



iqtisodiyotga o'tishning eng muhim shartidir, chunki bu tabiiy va iqtisodiy tizimlarning muvozanatli ishlashini, shuningdek, qayta tiklanmaydigan yoki asta-sekin tiklanadigan resurslarning tugab ketish xavfini kamaytiradi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida 1930-yillardagi Buyuk depressiya bilan taqqoslanadigan jiddiy moliyaviy-iqtisodiy inqiroz kuzatildi. Moliyaviy inqiroz global yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishining pasayishiga olib keldi. Masalan, 2013-yilda YaIM o'sish sur'ati 1,83 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda u 2,3 foizga kamaydi. Inqiroz davrida iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida ishlab chiqarish qisqarib, natijada ish o'rinlari kamaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning har 1 foizga pasayishi 20 million odamning qashshoqlikka tushib qolishiga olib kelishi mumkin.

Bu holat global miqyosda va mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy tengsizlikning yanada kuchayishiga, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovutning kengayishiga sabab bo'ldi.

Darhaqiqat, dunyo bir nechta yirik inqirozlar girdobida qoldi:

Yoqilg'i inqirozi – qazilma yoqilg'i zaxiralarning cheklanganligi tufayli neft narxining oshishidir. Xalqaro energetika agentligining (XEA) prognozlariga ko'ra, 2030-yilga kelib neft narxi 2008-yilga nisbatan bir barrel uchun AQSH dollarida to'rt baravar oshishi mumkin. Bu yetkazib berishning cheklanganligi va tez o'sayotgan talab tufayli yuz beradi. Narxlarning keskin oshishi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun neft importini imkonsiz holga keltiradi.

Oziq-ovqat inqirozi – aholi sonining ortishi sababli 2050-yilga kelib oziq-ovqat ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish zarur bo'ladi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini belgilovchi bioxilma-xillik va ekotizim xizmatlari yomonlashishda davom etmoqda. Ayniqsa, ekotizim xizmatlariga, masalan, o'rmonlar va suv qatlamlaridan foydalanadigan fermerlar uchun bu xavfli holatdir.

Suv inqirozi – rivojlanayotgan mamlakatlarda har beshinchi kishi yetarli darajada toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. Suvga bo'lgan talab raqobatbardosh foydalanish natijasida o'sishda davom etmoqda. Dunyoning ko'plab hududlarida suv resurslariga iqlim o'zgarishi – yog'ingarchilikning mavsumiy taqsimlanishi, muzliklarning erishi va qurg'oqchilik kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab har 10 kishidan 3 tasi (2,1 milliard) uyida xavfsiz ichimlik suvi ta'minotiga ega emas, har 10 kishidan 6 tasi (4,5 milliard) esa xavfsiz sanitariya sharoitlariga ega emas. 1990–2004-yillar oralig'ida sanitariya sharoitlariga ega bo'lganlar soni 50% ga oshgan bo'lsa-da, aholining tez o'sishi tufayli bu xizmatlardan foydalana olmayotganlarning soni deyarli o'zgarmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili orqali yashil iqtisodiyotning roli haqida mavjud ilmiy ishlar va tadqiqotlar o'rganildi

Egorova M.S., Eremina E.P. (2015) "Yashil iqtisodiyot – jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichining hodisasi sifatida" nomli tadqiqotida dunyoda yashil iqtisodiyotning tashkil etilishi bandlikni oshirishga ta'siri va mehnat bozori samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Muallif yashil iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasiga asosan bandlik sohasini rivojlantirishga ta'sirini o'rgangan hamda ish bilan ta'minlanmaganlar uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishini tahlil qilgan.[2]

Asaliev A.M. (2014) "Yashil bandlik sohasini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyaga nazariy yondashuvlar" nomli maqolasida yashil iqtisodiyotni mehnat bozori bilan bog'liq holda nazariy jihatdan tahlil qilgan.[3]

Nazarova M.Sh., Kazakova Z.S. (2024) "Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish masalalari" nomli maqolasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi rivojlanayotgan davrda agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish masalalarini yoritganlar.[4]

"Yashil iqtisodiyot tomon: kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan barqaror rivojlantirish yo'li" nomli hisobotda dunyoda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishlari va uning aholi turmush tarziga, shu bilan iqtisodiy holatiga, kambag'allik darajasining oshib borayotganiga e'tibor qaratilgan va bu holatlar bilan kurashish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirishda ta'lim tizimi va yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini kuchaytirishning o'rni va ahamiyatini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar yashil iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, ishsizlik darajasini kamaytirishga, mehnat bozorining ehtiyojlarini qondirishga va kambag'allikni qisqartirishga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga xizmat qiladi. Maqolalarda yangi yondashuvlar, amaliy takliflar va mavjud siyosatni takomillashtirish yo'llari muhokama qilingan.

Tahlil qilingan adabiyotlar, dokladlar va maqolalar yashil iqtisodiyotga o'tish dasturlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri, hamda ularning kambag'allikni kamaytirishdagi o'rni haqida muhim xulosalar beradi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy dasturlar va davlat siyosati haqida fikr yuritilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik yondashuv sifatida maqolada analitik, taqqoslash va tizimli tahlil usullari qo'llanilgan. Ushbu metodologiya yordamida O'zbekistonning yashil iqtisodiyoti, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishsizlik va kambag'allik holati, mehnat bozoridagi talablar, yangi ish o'rinlarini barpo etish va yashil iqtisodiyot dasturlarining samaradorligi atroflicha o'rganilib, chuqur tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirishdagi samaradorligi ko'plab o'rganishlar va tajribalarda isbotlangan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot kontsepsiyasining rivojlanishi aholining ta'lim darajasining yuqori bo'lishi ularni mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. Dunyoda va O'zbekistonda yashil iqtisodiyot, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda aholini yangi yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi bo'yicha malaka oshirish dasturlarining yaratilishi ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirmoqda. Shuningdek, ta'lim va malaka oshirish orqali yangi biznes imkoniyatlari yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda "yashil" iqtisodiyot kontsepsiyasining mohiyati turlicha talqin qilinmoqda: kimdir bu iqtisodiyotni yangi, ekologik toza muqobil tarmoqlar deb hisoblasa, boshqalar tabiatga foyda keltiradigan yangi texnologiyalarni yaratishni taklif qilmoqda. Yana boshqalar bu ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichi deb hisoblaydi.

Yashil iqtisodiyotni aholi turmush sifatini yaxshilaydigan moslashuvchan va elastik iqtisodiyotga erishish vositasi sifatida ko'rish mumkin. Buni barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini bog'lash hamda bu jihatlar o'rtasida yanada uyg'unlikni ta'minlash vositasi sifatida ham talqin etish mumkin. Bu mamlakatlarning barcha guruhlar – rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan uyg'unlikni nazarda tutadi. Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, qisqa muddatda "yashil" iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning o'sishini, aholi jon boshiga daromad va bandlikni an'anaviy "jigarrang" iqtisodiyotga qaraganda bir xil yoki undan yuqori sur'atlarda ta'minlashga qodir. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda esa yashil iqtisodiyot jigarrang iqtisodni ortda qoldirib, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish nuqtai nazaridan ko'proq foyda keltiradi.

Kosta-Rika, Xitoy, Braziliya, Botsvana, Yevropa Ittifoqi, Efiopiya, Gana, Yaponiya, Keniya, Indoneziya, Tailand, Janubiy Afrika, Nigeriya, AQSh – bu davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishni faol qo'llab-quvvatlamogda. Biroq Venesuela, Boliviya, Gonduras kabi davlatlar, shuningdek, Karib dengizi mintaqasi va ayrim Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanish dasturida yashil iqtisodiyotni umuman qayd etmagan.

Jahon iqtisodiyotining "yashil" sektori miqyosi hozircha nisbatan kichik bo'lsa-da, ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda "yashil" atamasi bilan bir qatorda "yashil nihollar" iborasi ham tez-tez ishlatiladi. Masalan, 2010 yilda ushbu sohada ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymati 2 trillion dollarni yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizini tashkil etgan, foyda 530 milliard dollarni tashkil qilgan va 10 millionga yaqin kishini ish bilan ta'minlagan.

Ayrim davlatlarda bu sohaning iqtisodiy kompleksga qo'shgan hisssasi sezilarli darajada yuqori:

Germaniyada – taxminan 4,8% va ekologik toza tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha jahon yetakchiligi (xususan, iqlimni muhofaza qilish uskunalar bilan jahon savdosining 12% dan ko'prog'i);

Buyuk Britaniyada – 2009 yilda "yashil" sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 240 milliard dollarni (8,8%), eksportdagi ulushi 5%, jami bandlikdagi ulushi esa 3%ni tashkil qilgan.

Iqtisodiyotlarni o'zgartirishda siyosatchilar duch keladigan asosiy muammolardan biri – bu yetarli miqdordagi munosib ish o'rinlarini yaratishdir. Shu sababli mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o'tishda tanlagan iqtisodiy siyosat keng ko'lamli faoliyat bo'yicha bandlikka va ijtimoiy tizimlarga ta'sir qiladi.

Barqaror, kam uglerodli iqtisodiyotga global o'tish ko'plab tarmoqlarda bandlikni oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shubhasiz, bu rivojlanishning yangi harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin. Biroq bu o'tish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun qator muammolarni hal etish zarur. Shu bois, BMT Barqaror rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (R+20) doirasidagi muhokamalarda yashil iqtisodiyot siyosatining ta'siri markaziy mavzuga aylangan.

UNEP va XMT ta'kidlaganidek, yashil iqtisodiyotga faqat to'g'ri bandlik siyosati bilan erishish mumkin. Bunday siyosat esa inson kapitali va ijtimoiy kapitalga investitsiyalarni o'z ichiga olishi zarur.

Tashil iqtisodiyotga o'tishda bandlik imkoniyatlari va asosiy muammolar

Yashil iqtisodiyotga o'tishda bandlik imkoniyatlari va asosiy muammolar yoritilgan, shuningdek, munosib ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan siyosatlar taklif etiladi. Iqtisodiyot yanada barqarorlik sari harakatlanar ekan, bandlikka kamida to'rt omil ta'sir qiladi:



– **Birinchidan**, ba’zi hollarda qo’shimcha ish o’rinlari yaratiladi. Masalan, mavjud ishlab chiqarish uskunalariga o’rnatilgan ifloslanishni nazorat qiluvchi qo’shimcha moslamalarni ishlab chiqarishda.

– **Ikkinchidan**, ba’zi ish o’rinlari almashtiriladi. Masalan, qazib olinadigan yoqilg’idan qayta tiklanadigan yoqilg’iga, avtomobil yuk tashishdan temir yo’lga, chiqindilarni utilizatsiya qilishdan ularni qayta ishlashga o’tish davrida.

– **Uchinchidan**, ba’zi ish o’rinlari to’g’ridan-to’g’ri almashtirilmagan yo’qoladi. Masalan, qadoqlash materiallariga taqiy qo’yilgan holatda, ularni ishlab chiqarish to’xtatiladi.

– **To’rtinchidan**, ko’pgina mavjud ish o’rinlari (ayniqsa, chilangarlar, elektrchilar, metallurqlar va qurilish ishchilari) kundalik mehnat ko’nikmalari va amaliyotlarini “yashillashtirish” natijasida o’zgarishi mumkin.

UNEP yashil iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilaydigan, shu bilan birga ekologik xavf va tanazzulni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida belgilaydi.

Yashil iqtisodga o’tish, jigarrang iqtisodiyot kabi, kamida shuncha ish o’rinlarini yaratadi. Xususan, yashil investitsiya stsenariylarida qishloq xo’jaligi, uy-joy kommunal xo’jaligi, o’rmon xo’jaligi va transport sohaslarida bandlik 2050 yilga kelib jigarrang iqtisodiyotga qaraganda tezroq o’sadi. Qishloq xo’jaligidagi global bandlik jigarrang ssenariy bo’yicha prognoz qilingan bandlikdan 4 foizga oshib ketishi mumkin.

O’rmonlarni muhofaza qilish va qayta tiklashga investitsiyalar 20 foizgacha rasmiy ish bilan ta’minlash imkonini beradi. Transportning barcha turlarida energiya samaradorligini oshirish va xususiy transportdan jamoat yoki motorsiz transportga o’tish bandlikni taxminan 10 foizga oshiradi. Bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirishga investitsiyalar Yevropa va AQShda 2–3,5 million qo’shimcha ish o’rinlarini yaratishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi binolarga (davlat ob’ektlari, shifoxonalar, maktablar va boshqalar) bo’lgan ehtiyojni hisobga olsak, bu salohiyat yanada yuqoridir.

Energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish 2050 yilga kelib bandlikni 20 foizga oshiradi, barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlaydi va CO₂ emissiyasini kamaytiradi. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlashda ham ish bilan ta’minlanadi. Qayta ishlanadigan materiallarni saralash va qayta ishlash chiqindilarni ko’mish yoki yoqishdan ko’ra har bir tonna uchun 10 barobar ko’proq ish o’rinlari yaratadi. Yashil investitsiya ssenariylarida chiqindilarni qayta ishlash sanoatida ish o’rinlari sonining o’sishi joriy tendentsiyalarga nisbatan 10 foizga ko’p bo’ladi.

Ta’kidlash joizki, tarmoqlarni “yashillashtirish” ish o’rinlari yaratish barobarida ba’zi sohalarda bandlikning qisqarishiga ham olib keladi. Masalan, suvdan foydalanish samaradorligining oshishi va iste’molning kamaytirilishi tufayli 2050 yilga borib ish o’rinlari soni 20 foizga kamayadi. Bu hisob-kitoblar suv samaradorligini oshiradigan faoliyatdagi (masalan, suvni o’lchash) yangi ish o’rinlarini hisobga olmaydi.

Baliqchilik sohasini “yashillashtirish” qisqa va o’rta muddatda baliq ovlashni qisqartirish zarurati sababli ish o’rinlari kamayishiga olib keladi. Biroq, 2050 yilga kelib, yashil ssenariy bo’yicha baliq zaxiralarini tiklash hisobiga sohada ish o’rinlari yana sezilarli darajada ortadi. Hisob-kitoblarga ko’ra, 2011–2050 yillar davomida suv va baliqchilik sohaslarida yaratilgan yangi ish o’rinlari, yashil iqtisodiyotga o’tish jarayonida yo’qolgan ish o’rinlaridan ko’proq bo’ladi.

Asosiy vazifa – mehnat bozorining qisqarishi davrida “yashil” suv va baliqchilik tarmoqlariga **“adolatli o’tish”ni ta’minlash** bo’yicha samarali siyosat va chora-tadbirlar ishlab chiqishdir.

Misol: Bangladeshda har oy qishloq joylarida 8000 dan ortiq quyosh fotoelektr tizimlari (PVS va SPV) o’rnatiladi. Bu kamida 20 000 ish o’rni yaratishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, quyidagilarni joriy etish zarur:

transport vositalarining energiya samaradorligini oshirish;
muqobil “yashil” yoqilg’idan foydalanishni kengaytirish;
alternativ “yashil” dvigatellarni keng joriy etish;
va boshqa shu kabi chora-tadbirlar.

Toza transport tizimiga o’tish yashil bandlikning o’sishiga yordam beradi. Kam chiqindilik avtomobillar ishlab chiqarishni ko’paytirish respublikada 20 ming yangi ish o’rni yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, yoqilg’ini qayta ishlash va yetkazib berish, sotish, ta’mirlash va xizmat ko’rsatish kabi sohalarda 100 mingtagacha tegishli ish o’rni yaratilishi mumkin.

Toza va samarali shahar transportiga investitsiyalar ikkilamchi bandlikka ham hissa qo’shadi, har bir yaratilgan ish o’rinlari uchun bandlik multiplikatori 2,5–4,1 ni tashkil qiladi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlariga ko’ra, 5 yil ichida respublikada 30 ming dona ekologik toza jamoat transporti ishlab chiqarish tashkil etilsa, 75 mingtagacha ish o’rni yaratiladi, demak, iqtisodiyotni “yashillashtirish”, birinchi navbatda, aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan bo’lsa-da, shu bilan birga ekologik xavf va tabiiy resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shunday qilib, barqaror rivojlanishga erishish uchun salomatlik muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini ko’klamzorlashtirish va tegishli siyosiy va strategik qarorlarni qabul qilishga investitsiyalar aholining sog’lom bo’lishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, “yashil” iqtisodiyot iqtisodiyotni rivojlanishining



yangi bosqichiga o'tish ekanligini hisobga olsak, asosiy maqsadi ekologik toza mahsulotlar yaratish bo'lgan korxonalar, bevosita moliyaviy investitsiyalar ko'magida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi. Taqdim etilgan prognozlariga ko'ra, yaqin 30 yil ichida O'zbekiston va boshqa bir qator mamlakatlar sanoat tuzilmasini istiqbolli yangilash mumkin. "Yashil" iqtisodiyotga to'liq o'tish juda ko'p ish o'rinlarini yaratadi, bu esa "jigarrang" iqtisodiyotda bandlikning qisqarishini qoplaydi. Bu uy-joy kommunal xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, energetika va transport kabi iqtisodiyot tarmoqlariga taalluqlidir. Biroq, tabiiy kapital keskin kamayib ketgan tarmoqlarda, masalan, baliqchilik sektorida, bandlik va daromadlarning vaqtincha pasayishi kuzatiladi, bu esa ishchi kuchini qayta tayyorlash dasturlarini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatimizda ishsizlikni kamaytirishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, kambag'allikni qisqartirishda, tabiatimizni asrashda yashil iqtisodiyotning o'rni nihoyatda muhimdir

Hozirgi vaqtda YalM ko'rsatkichini to'ldirish uchun barqaror rivojlanishning yangi ko'rsatkichlari ishlab chiqilayotganligi sababli, o'tish davrida «yashil» o'sish kontseptsiyasi ma'lum bir mintaqa iqtisodiyotining «yashil» iqtisodiyotga qanchalik o'tishini kuzatish uchun qo'llaniladi.

«Yashil o'sish» - bu «yashil» iqtisodiyot tamoyillariga mos keladigan va iqtisodiyotning «yashil» tarmoqlariga rivojlanishning yangi dvigatellari sifatida e'tibor qaratadigan o'sish bo'lib, «yashil» sektorlarga e'tibor iqtisodiyot strukturasini o'zgartirishni nazarda tutadi, bu esa:

- barqaror rivojlanishning ijtimoiy jihatiga ko'proq e'tibor qaratadi (ijtimoiy resurslardan foydalanish, resurslarni taqsimlash va boshqalar.);
- nafaqat qayta ishlash sektoriga, balki tobora ko'proq qazib olish va xizmat ko'rsatish sohalariga asoslangan;
- ekologik toza investitsiyalar, ishlab chiqarish, savdo, taqsimlash va iste'mol qilish, shuningdek, tovar va xizmatlarni ekologik nuqtai nazardan takomillashtirish bilan ta'minlanadi;
- tabiiy resurslardan qazib olinadigan yoqilg'idan qat'i nazar, barqaror foydalanishga olib keladi;
- yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, iqtisodiy rivojlanish ko'lamini kengaytiradi va qashshoqlikni kamaytiradi;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish va boshqarishda yordam beradigan «ekologik ishlar tizimi», biologik xilma-xillik; yuqori samarali strategiyalar orqali energiya, resurslar va suv sarfini kamaytirish; uglerod chiqindilarini kamaytirish; «chiqindi va ifloslanishning barcha shakllarini minimal darajada kamaytirish yoki butunlay oldini olish».

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Egorova M. S., Eremina E. P. «Yashil» iqtisodiyot jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichining hodisasi sifatida // Xalqaro eksperimental ta'lim jurnali. - 2015. - № 4–2;
2. A.M.(2014) Yashil bandlik soxasini rivojlantirishga qaratilgan kosepsiyasiga nazariy yondashuvlar. // Горизонты экономики. 2014. № 5 (17). С. 37–40.
3. Nazarova M.Sh., Kazakova Z.S.,(2024). Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish masalalari. Maqola mualliflari yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi rivojlanayotgan davirda agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish masalalarini tahlil qilganlar.
4. Yashil iqtisodiyot tomon: kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan barqaror rivojlantirish yo'li.Umumlashtiruvchi doklad: ЮНЕП, С. 5–6. URL: http://www.journal.esco.co.ua/cities/201_8/art252.pdf (murojat vaqti : 15.06.2015).
5. Kazakova, Z. S., & Nazarova, M. Sh. (2023). Sostoyaniye i tendensii razvitiya selskogo xozyaystva v uzbekistane. Nauchnyy Fokus, 1(7), 681-686.
6. Salomov, I., Jonibekov, F. B., Kazakova, Z. S., & Nazarova, M. Sh. (2022). SAMARQAND VILOYATINING IQTISODIY TARMOQLARIDA INNAVASIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLDAGI IMKONIYATLARI. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 482-485.
7. Salomov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4.
8. Nazarova, M.Sh., & Kazakova, Z. S. (2024). Oziq-ovqat xavfsizliginita'minlashda qishloqxo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnal.
9. Nazarova, M.Sh., & Kazakova, Z. S. Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnal. 2024 yil. 18-19 aprel.“. Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroiqtisodiyot va buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari va ularning yechimlari” professor N. Sanayev tavalludining, 85.
10. Salomov, I., Nazarova, M., Kazakova, Z., Jonibekov, F., Kudratov, R., Ulmasova, O., ... & Xudayberdiyeva, M. R. (2024). Faol tadbirkorlar faoliyatida kambao'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(2).



11. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.
12. Salaxiddinovna, KZ (2023). Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini o'qitish metodikasi. Periodica Zamonaviy falsafa, ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali , 18 , 66-68.
13. Nazarova, M. S., & Kazakova, Z. S. (2024). Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(2).
14. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
15. Nazarova, M. Sh., Kazakova, Z. S., & Berdikulov, R. A. U. (2025). VOZMOJNOSTI EKONOMICHESKOY EFFEKTIVNOSTI OT EKSPORTA FRUKTOV, OVOЩYeY I VINOGRADA. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(2), 188-191.
16. Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2024). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
17. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2024). Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
18. Salamov, I., Nazarova, M. Sh., & Kazakova, Z. S. (2024). INFRATUZILMADA BANDLIKNI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHDAGI IMKONIYATLARI. In The World Of Science and Education, (15 noyabr EN), 36-39.
19. Назарова М,Ш ,Бердикулов Р,Амонов С. ВОЗМОЖНОСТИ И РИСКИ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ <https://doi.org/10.5281/zenodo.14877794>
20. НАЗАРОВА М.,БЕРДИКУЛОВ Р.,Р О., ЗАНЯТОСТЬ И РЫНОК ТРУДА В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ <https://doi.org/10.5281/zenodo.15042736>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
